



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



IOT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA AQLLI TIZIMLARNI YARATISHNING AMALIY ASOSLARI

Xurramov A.B.

Xurramova M.J.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston.

khurramov@tsue.uz

m.khurramova@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda Internet narsalar (IoT – Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish orqali aqli tizimlarni yaratishning amaliy asoslari tahlil qilinadi. IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, uzatish va qayta ishlash imkoniyatlari yaratilmogda, bu esa sanoat, transport, energetika, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi hamda shahar infratuzilmasida aqli boshqaruvi tizimlarini joriy etish imkonini bermoqda. Tezisda ushbu texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilishda yuzaga keladigan muammolar, xavfsizlik talablariga rioya qilish zarurati, texnik infratuzilma holati va dasturiy ta’minot vositalarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari IoT asosidagi aqli tizimlar samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun amaliy yo‘nalishlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: IoT texnologiyalari, aqli tizimlar, raqamli transformatsiya, real vaqt monitoringi, avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, texnik infratuzilma, aqli shahar, sanoat 4.0, kiberxavfsizlik.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlarining jadal sur’atlarda rivojlanayotgani sharoitida IoT (Internet of Things) texnologiyalari sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, transport, sog‘liqni saqlash, energetika va boshqa ko‘plab sohalarda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. IoT texnologiyasi, mohiyatan, turli fizik obyektlar va qurilmalarning internet tarmog‘i orqali o‘zaro bog‘lanishi, ular o‘rtasida ma’lumot almashinushi va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini ta’minlovchi konsepsiadir. Ushbu texnologiyaning asosiy vazifasi – axborotni avtomatik tarzda yig‘ish, uzatish va qayta ishlash orqali foydalanuvchi yoki tizim tomonidan tezkor va asoslangan qaror qabul qilishga zamin yaratishdir.

IoT asosidagi aqli tizimlar dastlab AQSh va Yevropa davlatlarida sanoat 4.0 g‘oyasi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda butun dunyo miqqosida keng tatbiq etilmoqda. Masalan, “aqli shahar” (smart city) konsepsiyasida IoT texnologiyalari yordamida yoritish tizimlari avtomatik boshqariladi, axlat yig‘ish tizimlari to‘ldirilganlik darajasiga qarab harakatlanadi, transport oqimi sun‘iy intellekt asosida tartibga solinadi. Bularning barchasi resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minalash va aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Aqli tizimlarning samarali faoliyat yuritishi bir qator texnologik elementlarning o‘zaro uyg‘unlashgan ishlashiga asoslanadi. Bunday tizimlarda eng avvalo, turli turdag‘i sensorlar (datchiklar) muhim o‘rin egallaydi. Ular harorat, namlik, bosim, harakat, yorug‘lik kabi tashqi muhit ko‘rsatkichlarini doimiy tarzda aniqlab, axborotni yig‘ish vazifasini bajaradi. Bu ma’lumotlar real vaqt rejimida to‘planadi va keyingi ishlov berish uchun uzatiladi.

Sensorlar tomonidan yig‘ilgan axborotlar asosida aktuatorlar orqali turli fizik harakatlar amalga oshiriladi. Masalan, eshikning avtomatik ochilishi, yoritish tizimining yoqilishi yoki o‘chirilishi, ventilyatsiya boshqaruvi kabi jarayonlar aynan dasturiy buyruqlarga muvofiq aktuatorlar yordamida bajariladi. Bu jarayonlarning uzluksiz ishlashi tarmoqli aloqa vositalari – Wi-Fi, LTE, 5G, Bluetooth kabi zamonaviy texnologiyalar orqali ta’milanadi. Ular orqali qurilmalar o‘zaro bog‘lanadi va axborot oqimi uzluksiz amalga oshiriladi.

Shuningdek, tizimlar tomonidan yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar bulutli hisoblash tizimlariga uzatiladi. Bulutli texnologiyalar axborotni saqlash, qayta ishslash va markazlashgan tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayonda analitik platformalar asosiy rolni bajarib, yig‘ilgan ma’lumotlar asosida foydali bilimlar ajratiladi, xulosa chiqariladi hamda kelajakdagi holatlar bo‘yicha prognozlar ishlab chiqiladi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashdirish va optimallashtirish imkonini beradi.

IoT texnologiyalariga asoslangan aqli tizimlar bugungi kunda turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, sanoat sohasida ushbu tizimlar aqli ishlab chiqarish liniyalarini tashkil qilish, texnik xizmat ko‘rsatishni oldindan rejalashtirish (predictive maintenance), energiya sarfini tahlil qilish va nazorat qilish imkonini bermoqda. Qishloq xo‘jaligida IoT texnologiyalari agrotexnik chora-tadbirlarni optimallashtirish, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, hosil monitoringi va tuproq tarkibini tahlil qilish orqali hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Transport sohasida esa GPS texnologiyasi yordamida avtomobillar harakatini kuzatish, ularning texnik holatini nazorat qilish, marshrutlarni optimallashtirish va yo‘l harakati xavfsizligini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimida esa masofaviy diagnostika, yurak urishi va qon bosimini doimiy kuzatish, bemor holatini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu zamonaviy tibbiy xizmatlar sifati va tezligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida IoT texnologiyalariga asoslangan energiya tejovchi qurilmalar, aqli yoritish va isitish tizimlari, xavfsizlik kameralarini avtomatik boshqarish imkoniyatlari yaratilgan. Ushbu tizimlar yordamida resurslardan foydalanish samaradorligi oshib, aholiga qulay, xavfsiz va avtomatlashdirilgan muhit yaratilmoqda.

Biroq, IoT texnologiyalarining joriy etilishi faqat texnik jihatlarni emas, balki huquqiy, axloqiy va xavfsizlik omillarini ham hisobga olishini talab etadi. Xususan, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minalash dolzarb masala hisoblanadi. Har bir IoT qurilmasi potentsial ravishda kiberhujum obyekti bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tarmoq himoyasi, shifrlash algoritmlari, foydalanuvchi autentifikatsiyasi kabi choralarini ko‘rish muhimdir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bundan tashqari, IoT infratuzilmasini joriy etishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- texnik infratuzilmaning tayyorligi (yuqori tezlikdagi internet, elektr ta'minoti);
- milliy me'yoriy-huquqiy baza va sertifikatlash standartlari mavjudligi;
- malakali mutaxassislar tayyorlash;
- IT-komponentlar bozorining rivojlanganligi;
- texnik xizmat ko'rsatish va servis madaniyatining mavjudligi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, IoT texnologiyalari yordamida yaratilgan aqli tizimlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish, real vaqtli boshqaruv, barqaror rivojlanish va inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida bunday tizimlarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Misol uchun, "Aqli qishloq", "Aqli uy", "Aqli shahar" kabi pilot loyihalar orqali IoT texnologiyalarining amaliy imkoniyatlari sinovdan o'tkazilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5031025>
2. Mirziyoyev, Sh.M. (2020). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston.
3. Hasanov, B.B., & Muxitdinov, R.S. (2021). IoT texnologiyalarining sanoat jarayonlarida qo'llanilishi. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari* jurnali, №3(15), 22–28.
4. Khamdamov, I. (2022). Aqli shaharlar konsepsiysi va IoT texnologiyalari. *Innovatsion rivojlanish* ilmiy jurnali, №2(9), 34–41.
5. Kumar, R., & Mallick, P.K. (2018). The Internet of Things: Insights into the building blocks, component interactions, and architecture layers. *Procedia Computer Science*, 132, 109–117. <https://doi.org/10.1016/j.procs.2018.05.164>
6. Atzori, L., Iera, A., & Morabito, G. (2010). The Internet of Things: A survey. *Computer Networks*, 54(15), 2787–2805.
7. Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2013). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. *Future Generation Computer Systems*, 29(7), 1645–1660.
8. OECD. (2021). *The Internet of Things – A new avenue for digital development*. OECD Digital Economy Papers, No. 315. <https://www.oecd.org>
9. European Commission. (2020). *Shaping Europe's digital future: Internet of Things policy*. <https://digital-strategy.ec.europa.eu>
10. MQ Technologies. (2022). *IoT Fundamentals: Connectivity, Data and Analytics*. Singapore: MQ Publications.